



MUSTAQILLIK SHAROFATI BILAN O‘ZBEKISTAN XALQI

O‘ZLIGINI ANGLASH

Gafarova Shaxnoza Xayrullayevna

Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti O‘zbek tili
va adabiyoti kafedrası v.v.b. dotsenti

Yusupov Saidabrór Ravshan o‘g‘li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti talabasi

Annotasiya: Maqolada o‘zbek adabiyotining yillar davomida sharq xalqlari adabiyoti an‘analari va hozirgi kunda yosh mutaxassis o‘z tarixini, urf-odatlarini, qadriyatlarini yaxshi bilishlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: falsafa, kommunistik, tafakkur, siyosat, sovet, siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy.

O‘zbek adabiyoti ming yillar davomida asosan Sharq xalqlari adabiyoti an‘analari doirasida, arab, fors-tojik, hind xalqlari adabiyotlari bilan hamkorlikda, islom dini falsafasi, tasavvuf tariqatlari ta’sirida rivojlandi.

XIX asr adog‘i, XX asr boshlarida u yangi bir ma’naviy olamga, Ovropa madaniyati, adabiyoti tajribalariga yuz o‘gira boshladi. Bu hodisa sovet hokimiyati yillarida o‘zoq vaqt «Rossiyaga qo‘shilishning progressiv ahamiyati» samaralaridan biri sifatida baholanib kelindi.



To'g'ri, «falokatning sharofati» deganlaridek, XIX asrning ikkinchi yarmida xalqimiz boshiga tushgan kulfat, tariximizning, Qodiriy so'zlari bilan aytganda, «eng kirlik qora kunlari» - yurtimizning rus istilochilari tomonidan zabt etilishi tufayli bu yerga Ovropa tartib-qoidalari, fan, madaniyat, adabiyot yangiliklari kirib kela boshladi. Biroq, bu xil hodisa faqat chor Rossiyasi tomonidan zabt etilgan Turkiston xalqlari hayotida emas, deyarli barcha Sharq mamlakatlarida, harb mustamlakachilari qo'li etmagan yurtlarda ham sodir bo'ldi.

Jahonning biror hududida ma'naviy, madaniy hayotda, ilm-fan, adabiy tafakkurda paydo bo'lgan yangiliklarning o'zga hududlarga ko'chib o'tishi qonuniy, tabiiy holdir. Jahonga yuz ochgan, yangiliklarga tashna, xayrixoh, o'zgalarning tajribalaridan bahramand bo'la olishga qobil yurt farzandlari bor mamlakatgina taraqqiy etgan xalqlar, millatlar safida yura oladi.

O'zbek xalqi necha ming yillik tarixida buning shohidi bo'lgan, o'zgalarning ilg'or tajribalaridan bahramand bo'lib yangi ilmiy, badiiy mo'jiza, kashfiyotlar yaratishga, o'z navbatida boshqa xalqlar madaniyatiga ta'sir ko'rsatishga qodir ekanini isbot etgan. Ayni paytda, jahon taraqqiyoti, madaniyatidan uzilib, tor, mahalliy biqlikka o'ralib qolishning jabrini ham chekkan.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistan xalqi o'zligini anglash, ming yillik tarixini, an'analarini, madaniyatini, urf-odatlarini tiklash baxtiga ega bo'ldi.

Xalqimizning asriy orzulari, ozodlik deb jonini fido qilgan o'zbek ziyolilarining maqsadlari ruyobga chiqdi. Tilimizga Davlat tili maqomi berilib, tarbiya va maorif sohalari ham yuksak talablarga javob bera oladigan yangi bir tizimni tashkil etdi.

Tarixdan ma'lumki, xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi.

Mustamlakachilik davrida chor Rossiyasi amaldorlari mahalliy xalqni tarixidan, buyuk madaniyatidan mahrum qilish uchun qimmat baho tarixiy qo'lyozmalarni tashib ketdilar, o'zlari esa mahalliy aholi uchun xat-savod o'rgatish maktablarini ochishdan nariga



oʻtmadilar. Bu siyosat Sovetlar hokimiyati davrida davom etdi: vatanparvarlik, insonparvarlik, sabr, kechirimlilik, yaxshilik kabi yuksak gʻoyalarni targʻib qilgan buyuk olimlarni yoʻqqa chiqardilar, islom dinini taʻqib qildilar.

Insoniy gʻoyalarni kuylagan adiblarni qoraladilar, kamsitdilar. Ular yaratgan adabiy asarlarda shariatga taalluqli buyuk gʻoyalarni eʻlon etish mumkin boʻlmay qoldi. Bunday yuksak gʻoyalarni oʻz asarlarida tarannum etgan adabiyot esa klerikal, saroy adabiyoti deb soralandi (Yassaviy, Fazliy kabi), oʻrniga kommunistik gʻoya singdirildi.

Mustaqillikka erishgach, birinchi prezidentimiz taʻkidlaganidek, “biz oʻz milliy tabiatimiz va ming yillik anʼanalarimiz, urf-odatlarimizga zid boʻlgan soxta kommunistik gʻoyalardan voz kechdik. Lekin boʻsh qolgan mafkura maydonidan bizga begona, orzu-intilishlarimizga mutlaqo yot gʻoyalar oʻrin egallashga oʻrinishi shubhasiz.

Hozirgi paytda roʻy berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojuya xatti-xarakatlar, yovuz ishlar avvalo mafkuraviy bushliq tufayli sodir boʻlmoqda”.

Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov “bundam mafkuraviy taʼsirlar salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?” degan savol qoʻyib, bunga shunday javob beradi: “Buning yoʻli — odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-eʼtiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni oʻz mustavil fikriga ega boʻlgan barkamol insonlar etib tarbiyalash”.

Hozirgi kunda yosh mutaxassis, qanday sohada mehnat qilishidan qati nazar, oʻz kasbini chuqur egallashi bilan birga, oʻz tarixini, urf-odatlarini, qadriyatlarini yaxshi oʻzlashtirgan, omma bilan yaqin aloqada boʻla oladigan mutaxassis, olim, adib, muallim, jamoat arbobi boʻlishiga, «men oʻzbek farzandiman deb, gʻurur va iftixor bilan yashashiga erishish» zarur.

21-oktabr — Oʻzbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun. Qadimiy til sifatida eʼtirof etilayotgan oʻzbek tili xalqimiz uchun milliy qadriyat, oʻzlikni anglash, mustaqil davlatchilik timsoli, maʼnaviy boylik, xalqimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, maʼnaviy-maʼrifiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.



Til siyosatini mafkura qilib yuritar ekanmiz, o‘z ona tilimizni qanchalik hurmat qilishimiz, birinchi navbatda oilaga ham bog‘liq. Har bir oilada, muloqot tili birinchi o‘rinda o‘zlikni anglashga etaklaydi.

Oilada milliy tilimizga bo‘lgan e‘tibor kuchli bo‘larkan, bola avvalo e‘tibor va e‘zozlangan ona tilda fikrlaydi.

Oilada o‘z ona tilida muloqot qilib, maktabda boshqa tilda suhbatlashadigan bola asta-sekin "maktab tili"ga o‘tib olishini ko‘pchilik yaxshi bilsa kerak. Bu esa, farzandlarimizni mentalitetimizga mos qilib voyaga etkazishda ancha mushkulot tug‘diradi. O‘zlikni anglashda tilni birinchi o‘ringa qo‘ysak inson ma‘naviyatini shakllantirishdagi o‘rni kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi». T, 1999. B. 264-285.
2. Normatov U. Haqiqatning mashaqqatli yo‘li. «P.Qodirov. Saylanma. Uchinchi jild». T., 1988
3. Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor. «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi». T., 1999. B. 264